

UO'K(UDC, УДК): 821

YUNUS EMRO ASARLARINING O'RGANILISHI VA BIBLIOGRAFIK TADQIQOTLAR²

Yusupova Adolat Anvarovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

1- bosqich tayanch doktoranti

E-mail: adolatyusupova.9688@gmail.com

ORCID ID: 0009-0006-0813-5024

ANNOTATSIYA	KALIT SO'ZLAR
Mazkur maqolada Yunus Emro asarlarining o'rganilish tarixi hamda ularga oid bibliografik tadqiqotlarning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda turk va jahon adabiyotshunosligida Yunus Emro merosini ilmiy jihatdan o'rganishga salmoqli hissa qo'shgan Mehmed Fuad Köprülü, Abdülbaki Gölpınarlı, Mustafa Tatçı, Talât Sait Halman, Annemarie Schimmel, Louis Bazin, Yusuf Subaşı kabi olimlarning ilmiy qarashlari va nashrlari qiyosiy yondashuv asosida yoritilgan. Shuningdek, shoirning "Dîvân" va "Risâletü'n-Nushiyye" asarlarining tanqidiy matnlari, qo'lyozmalari va ilmiy nashrlari haqida ma'lumot berilib, ularning matnshunoslikdagi ahamiyati ochib berilgan. Maqolada bibliografik va bibliometrik tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari, xususan, Mustafa Tatçı va Suzan Gürelli tomonidan tuzilgan bibliografik ko'rsatkich hamda Gökhan Coşgun, Metin Yıldırım, Beytullah Karagöz va İzzet Şerefning zamonaviy bibliografik va bibliometrik ishlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari Yunus Emro merosini o'rganishda bibliografik manbalar ilmiy izlanishlarni tizimlashtirish, mavjud tadqiqotlarni baholash va istiqboldagi ilmiy yo'nalishlarni belgilashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi.	Yunus Emro, turk tasavvuf adabiyoti, Dîvân, Risâletü'n-Nushiyye, bibliografiya, bibliometrik tahlil, matnshunoslik, qo'lyozmalar, ilmiy nashr, turk adabiyotshunosligi, Mustafa Tatçı, Abdülbaki Gölpınarlı. Received: April 28, 2026 Accepted: June 19, 2026 Available online: September 5, 2026

² **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Yusupova A. Yunus Emro asarlarining o'rganilishi va bibliografik tadqiqotlar. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 4(12) — B. 33-46.

БИБЛИОГРАФИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ИСТОЧНИКОВ, ПОСВЯЩЕННЫХ ИЗУЧЕНИЮ ТВОРЧЕСТВА ЮНУСА ЭМРЕ

Юсупова Адолат Анваровна

Докторант, 1-й курс

Узбекский государственный университет мировых языков

E-mail: adolatyusupova.9688@gmail.com

ORCID ID: 0009-0006-0813-5024

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
В статье комплексно рассматриваются история изучения произведений Юнуса Эмре и основные этапы создания и развития исследований, составивших библиографию работ, посвящённых его литературному наследию. Особое внимание уделяется трудам ведущих турецких и зарубежных учёных, среди которых Мехмед Фуад Кёпрюлю, Абдюльбаки Гёльпынарлы, Мустафа Татчы, Талат Саит Халман, Аннемари Шиммель, Луи Базен, Юсуф Субаши. В работе проанализированы их научные подходы к изучению поэтического наследия Юнуса Эмре, а также исследования, посвящённые критическим изданиям произведений «Диван» и «Рисалетюн-Нушийе», их рукописной традиции и текстологическим особенностям. В статье также рассматриваются библиографические и библиометрические исследования, раскрывается их роль в систематизации научной литературы, определении основных направлений изучения творчества поэта и выявлении степени разработанности проблемы. Особое место занимают библиографические труды Мустафы Татчы и Сюзан Гюрелли, а также современные исследования Гёкхана Джошгуна, Метина Ёылдырыма, Бейтуллаха Карагёза и Иззета Шерефа. Делается вывод о том, что библиографические и библиометрические исследования являются важной методологической основой для дальнейшего изучения литературного наследия Юнуса Эмре.	Юнус Эмре, турецкая суфийская литература, «Диван», «Рисалетюн-Нушийе», библиография, библиометрический анализ, текстология, рукописи, научное издание, турецкое литературоведение, Мустафа Татчы, Абдюльбаки Гёльпынарлы.

RESEARCH HISTORY AND BIBLIOGRAPHIC STUDIES OF THE WORKS OF YUNUS EMRE

Adolat Anvarovna Yusupova

First-Year Doctoral (PhD) Student

Uzbekistan State University of World Languages

E-mail: adolatyusupova.9688@gmail.com

ORCID ID: 0009-0006-0813-5024

ABSTRACT	KEYWORDS
This article provides a comprehensive analysis of the history of research on the works of Yunus Emre and the development of bibliographic studies devoted to his literary heritage. It examines the scholarly contributions of prominent Turkish and international researchers, including Mehmed Fuad Köprülü, Abdülbaki Gölpınarlı, Mustafa Tatçı, Talât Sait Halman, Annemarie Schimmel, Louis Bazin, Yusuf Subaşı, Umay Günay, and Osman Horata, whose studies have significantly advanced the understanding of Yunus Emre's poetry and Sufi thought. Particular attention is paid to the critical editions, manuscript tradition, and textual studies of Dîvân and Risâletü'n-Nushiyye, highlighting their importance for modern textual scholarship. The article further explores the evolution of bibliographic and bibliometric research related to Yunus Emre, focusing on the bibliographic compilations prepared by Mustafa Tatçı and Suzan Gürelli as well as the recent bibliographic and bibliometric analyses conducted by Gökhan Coşgun, Metin Yıldırım, Beytullah Karagöz, and İzzet Şeref. It argues that these studies have played a crucial role in organizing the existing body of scholarship, identifying major research trends, and establishing a solid methodological foundation for future investigations into Yunus Emre's literary and intellectual legacy.	Yunus Emre, Turkish Sufi literature, Dîvân, Risâletü'n-Nushiyye, bibliography, bibliometric analysis, textual criticism, manuscripts, critical edition, Turkish literary studies, Mustafa Tatçı, Abdülbaki Gölpınarlı.

KIRISH

Yunus Emro (1240–1320) turk xalqi ma'naviy merosi, adabiyoti va til taraqqiyotida alohida o'rin tutuvchi buyuk mutafakkir va shoir sifatida e'tirof etiladi. Uning ijodi asrlar davomida nafaqat turkiy xalqlar, balki jahon adabiy jamoatchiligi tomonidan ham yuksak qadrlanib kelinmoqda. Asarlarining umuminsoniy mazmuni, badiiy barkamolligi va falsafiy teranligi tufayli ular klassik meros darajasiga ko'tarilgan. Yunus Emro shaxsiyati va ijodining xalqaro miqyosdagi ahamiyati UNESCO tomonidan ham e'tirof etilib, 1991-yil uning insonparvarlik, mehr-muhabbat va bag'rikenglik g'oyalari sharafiga "*Yunus Emro – Sevgi yili*" deb e'lon qilingan. Shuningdek, shoir vafotining 700 yilligi munosabati bilan 2021-yil UNESCO tomonidan Yunus Emroni xotirlash yili sifatida nishonlandi. Bu e'tiroflar uning merosi milliy chegaralardan chiqib, umuminsoniy qadriyatlar tizimining ajralmas qismiga aylanganini tasdiqlaydi. Yunus Emro diniy-tasavvufiy turk adabiyoti an'anasining asoschilaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotchilarning umumiy fikriga ko'ra, uning she'riyati turk tilining kuchi va imkoniyatlariga tayangan bo'lib, u turk madaniy qadriyatlari tizimida muhim o'rin egallaydi (Gölpınarlı, 1968, 376; Güzel, 1991, 83).

ASOSIY QISM

Yunus Emroning bizgacha yetib kelgan asarlari ko'p emas, ammo ular turk adabiyoti va tasavvuf tarixi uchun beqiyos ahamiyatga ega. Asosan ikkita yirik asari ilmiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etiladi. Birinchisi – "Devon" (Yunus Emre Divanı). Bu asarga Yunus Emroning 300 ga yaqin she'rlari kiritilgan bo'lib, ularning aksariyati ilohiy ishq, insonparvarlik, tavhid, nafs tarbiyasi, axloq va tasavvuf g'oyalari bag'ishlangan. "Divon"ning muallif tomonidan tayyorlangan asl nusxasi saqlanmagan yoki hanuz topilmagan. Asar turli davrlarda ko'chirilgan qo'lyozmalar asosida qayta tiklangan. XX asrda Abdulboqiy Go'lpınarlı, Mustafo Tatchi, Faruq Qodirli, Abdulloh Uchan kabi olimlar uning ilmiy-tanqidiy nashrlarini tayyorladilar. (Abdulboqiy Go'lpınarlı, 2006; Mustafo Tatchi, 2008, Subaşı 1983) Hozirgi kunda "Divon" Turkiyada bir necha bor qayta nashr qilingan va universitetlarda asosiy manbalardan biri sifatida qo'llaniladi. Ikkinchisi – "Risalat un-Nushiyya"

(“Nasihatlar risolasi”). Bu Yunus Emroning yagona masnaviy shaklida yozilgan didaktik-falsafiy asari hisoblanadi. Asar taxminan 1307-1308 yillarda yaratilgan bo‘lib, 600 ga yaqin baytdan tashkil topgan. Unda insonning ma’naviy kamoloti, nafs bilan kurash, sabr, qanoat, ilm, tavba, ixlos va komil inson g‘oyalari tasavvuf nuqtayi nazaridan talqin qilinadi. Bu asar ham turli qo‘lyozmalar asosida ilmiy-tanqidiy matn sifatida nashr etilgan va turk tasavvuf adabiyotining eng muhim yodgorliklaridan biri sifatida baholanadi. Abdulboqiy Go‘lpinarli, Yusuf Subashi, Umay Gunay va Usmon Horata, Mustafo Tatchi hamda Idris Nabi Uysal kabi turk olimlari tomonidan turli qo‘lyozmalar asosida nashr qilingan. Ular ichida Mustafo Tatchining 2008 yilda tayyorlangan tanqidiy matni ilmiy mukammalligi va qo‘lyozmalarni keng qamrab olgani bilan eng ishonchli nashr sifatida e’tirof etiladi (Mustafo Tatchi, 2008)

Yunus Emro asarlari dunyo tillariga keng tarjima qilingan. Ayniqsa, ingliz, nemis, fransuz, rus, arab, fors, ozarbayjon, qozoq, qirg‘iz, o‘zbek, italyan, ispan, bolgar, rumin, bosniya va alban tillarida she’rlar to‘plamlari va tanlangan asarlari chop etilgan. Ingliz tilida Talat Sait Halman (Halman, 1981), fransuz tilida Louis Bazin (Bazin, 1991), nemis tilida esa Annemarie Schimmel (Schimmel, 1975) va boshqa olimlar Yunus Emro merosini Yevropa ilmiy muhitiga tanitishga katta hissa qo‘shganlar. Adibning asarlari nafaqat turk adabiyotining mumtoz namunalari, balki jahon tasavvuf adabiyoti va umuminsoniy ma’naviy merosning muhim qismi sifatida e’tirof etiladi.

Yunus Emro she’riyatining badiiy qudrati uning turk tilining tabiiy jozibasini tasavvuf falsafasining chuqur mazmuni hamda yuksak poetik mahorat bilan uyg‘unlashtira olganida namoyon bo‘ladi. Aynan mana shu badiiy sintez uning asarlarining keng xalq ommasida tarqalishiga, avloddan avlodga yetib kelishiga hamda turk adabiyoti tarixida mustahkam o‘rin egallashiga zamin yaratgan. Gölpınarlıning qayd etishicha, Yunus Emro tilning estetik imkoniyatlarini tasavvufiy dunyoqarash va she’riy san’at bilan uyg‘unlashtirish orqali Anadolu turk adabiyotining rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan (Gölpınarlı, 1968, 377).

Adabiyotshunos A.Dilchinning ta'kidlashicha, Yunus Emro tasavvuf she'riyatida hissiy kechinmalarni, falsafiy tafakkurni va badiiy ifodani o'ziga xos tarzda uyg'unlashtirgan shoir sifatida alohida o'rin egallaydi (Dilchin, 1992, 30). Uning ijodining muhim jihatlaridan biri shundaki, u xalq og'zaki nutqiga yaqin, sodda va ravon turk tilidan mohirona foydalanib, mazkur tilning nafaqat adabiy ifoda vositasi, balki chuqur falsafiy va ma'naviy fikrni yetkazishga xizmat qiluvchi til sifatida rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shgan. Shu sababli Yunus Emro Anadolu hududida turk adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotida muhim o'rin tutgan ijodkorlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Yunus Emro Anadolu tasavvufiy tafakkurining ramziy siymolaridan biri bo'lib, uning markazida inson qadri va ma'naviy kamolot g'oyasi turadi. Shoirning umumbashariy mazmundagi qarashlari turk xalqining madaniy identiteti, tarixiy xotirasi va ijtimoiy ongining shakllanish hamda rivojlanish jarayonida muhim o'rin egallaydi. Yunus Emroning "Gelin tanış olalım, işi kolay kılalım, / Sevelim sevillelim, dünya kimseye kalmaz" misralari shoirning tasavvufiy-antropologik qarashlarini mujassamlashtirgan muhim poetik formulalardan biri hisoblanadi. Ushbu baytda insonlar o'rtasidagi mehr-muhabbat, o'zaro anglashuv va bag'rikenglik g'oyalari dunyoning foniyligi haqidagi tasavvufiy konsepsiya bilan uyg'unlashtiriladi. Natijada insonni ezgulikka, tinch-totuv hayot kechirishga va umuminsoniy qadriyatlarni ulug'lashga chorlovchi falsafiy-badiiy konsepsiya yuzaga keladi.

Yunus Emro merosi adabiyotshunoslik, tilshunoslik, falsafa, tasavvufshunoslik va madaniyatshunoslik kabi ko'plab ilmiy yo'nalishlarda izchil o'rganib kelinmoqda. Tadqiqotlarda, avvalo, uning dunyoqarashi, badiiy tafakkuri, poetik uslubi hamda til xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi. Ayniqsa, Yunus Emroning xalq tilini badiiy ijod darajasiga ko'targani va eski turk yozma tilining rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissasi uni turk adabiy tili tarixidagi eng muhim namoyandalardan biri sifatida baholash imkonini beradi. Shu bois uning ijodi turk madaniyati va adabiy tafakkurining shakllanishida muhim tarixiy bosqichlardan biri sifatida qoraladi.

Turkiyalik olim va tarjimon Rushen Sezer Kanadaning eng qadimiy va eng nufuzli tadqiqot universitetlaridan biri bo'lgan McGill universitetini 1967-yilda tugatarkan, *“The Concept of Love in Yunus Emre’s Thought”* (“Yunus Emre tafakkurida muhabbat konsepsiyasi”) mavzusida magistrlik dissertatsiyasini himoya va nashr qildiradi. (Rushen, 1967) Mazkur tadqiqot Yunus Emre ta’limotida ilohiy muhabbat (ishq) konsepsiyasining tasavvufiy-falsafiy mohiyatini yoritishga bag‘ishlangan bo‘lib, G‘arb akademik muhitida shoirning dunyoqarashini maxsus tadqiq etgan dastlabki fundamental ilmiy ishlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Ilmiy ishning kirish qismida olim quyidagi muhim fikrlarni bildiradi: *“Hozirgi Turkiyada Yunus Emre haqida juda ko‘p asarlar yozilganiga qaramay, Mehmed Fuad Köprülü va Abdülbaki Gölpınarlı tadqiqotlaridan tashqari yetarlicha chuqur va ilmiy asoslangan izlanishlar mavjud emas. Ingliz tilida esa, J. K. Birgening qisqa maqolasi hamda E. J. W. Gibbning “Usmonli she’riyati tarixi” asarida Yunus haqidagi bayonini hisobga olmaganda, Yunus Emre haqida muhim tadqiqot deyarli yo‘q. Umuman olganda, chet tillarda Yunus Emre haqidagi eng mukammal tadqiqot Alessio Bombaci tomonidan amalga oshirilgan”*. (Rushen, 1967, 11) Rushen Sezer to‘g‘ri ta’kidlaganidek, Mehmed Fuad Köprülü va Abdülbaki Gölpınarlı kabi olimlar Yunus Emre tadqiqotlarining ikki eng muhim asoschisi hisoblanadi. Hozirgi kunda Yunus Emre haqida yozilayotgan deyarli barcha ilmiy ishlar ularning tadqiqotlariga tayanadi. Shu bois ularning nashrlari va ilmiy xulosalari bugungi kunda ham Yunus Emre ijodini o‘rganishda asosiy akademik manbalardan biri sifatida yuqori baholanadi.

Mehmed Fuad Köprülüning (1890–1966) eng mashhur asari *“Türk edebiyatında ilk mutasavvıflar”* (“Turk adabiyotidagi ilk mutasavviflar”, 1918–1919) hisoblanadi (Köprülü, 1991). Bu kitobda u Ahmad Yassaviy va Yunus Emreni birgalikda o‘rganib, Anadolu tasavvuf adabiyotining tarixiy ildizlarini ilmiy asosda yoritadi. Asarning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, Yunus Emre tasodifan paydo bo‘lgan shoir emas, balki Markaziy Osiyodagi Ahmad Yassaviy maktabining Anadolu hududidagi davomchisidir. Köprülü Yunus Emreni faqat shoir sifatida emas, balki turk tasavvufi, tili va madaniyatining shakllanishida muhim o‘rin tutgan

tarixiy shaxs sifatida tahlil qiladi. *Nima uchun bu ilmiy asar hozirgacha qadrlanadi? Chunki unda* Yunus Emre ilk bor tarixiy-ilmiy metod asosida o'rganildi, shoir ijodi Markaziy Osiyo va Anadolu tasavvuf an'analari bilan bog'lab izohlandi, qo'lyozmalar, tarixiy hujjatlar va adabiy manbalar kompleks ravishda tahlil qilind, turk adabiyoti tarixida zamonaviy ilmiy metodologiyani dastlabki namunalaridan biri yaratildi.

Abdülbaki Gölpınarlıning (1900-1982) Yunus Emre bo'yicha asosiy xizmatlari Yunus Emre "Devon"i va "Risâletü'n-Nushiyye" asari matnlarini ilmiy-tanqidiy tarzda nashr etishi bilan bog'liq (*Gölpınarlı*, 2008). U turli qo'lyozmalarni qiyoslab, matnlarning ishonchli variantini tayyorlaydi, izohlar va lug'atlar bilan boyitadi. Shuningdek, Yunus Emrening tasavvufiy terminlari, ramzlari va falsafiy qarashlarini sharhlab berdi. Mazkur ilmiy ish ham bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Unda Yunus Emro she'rlarining ilmiy-tanqidiy matni yaratilgan, shoirga nisbat berilgan she'rlarning haqiqiy muallifligi aniqlangan, tasavvufiy atamalar va ramzlar chuqur izohlangan. Shu jihatdan hozirgi matnshunoslik va filologik tadqiqotlar uchun asosiy manba vazifasini bajaradi.

Kuzatishlarimiz asosida Yunus Emro ijodi bilan bog'liq bir necha **bibliografik tadqiqotlar** olib borilgani aniqlandi. Ular orasida Mustafa Tatchining hammuallflikdagi "Yunus Emre Bibliyografiyasi" alohida ahamiyatga ega (Tatçı, Gürelli, 1988). Mustafa Tatçı va Suzan Gürelli tomonidan tayyorlangan "Yunus Emre Bibliyografiyasi: Kitap-Makale" asari Yunus Emre haqidagi ilk mukammal bibliografik ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Asar 1988-yilda Turkiya Kültür ve Turizm Bakanlığı tomonidan "Türk Büyükleri Bibliyografiyalari" turkumi doirasida nashr etilgan. Uning asosiy maqsadi Yunus Emre ijodi va shaxsi haqida shu vaqtgacha chop etilgan ilmiy adabiyotlarni yagona bibliografik manbada jamlashdan iborat bo'lgan. Kitob 104 betdan iborat bo'lib, unda monografiyalar, ilmiy maqolalar, konferensiya materiallari, ensiklopediya maqolalari va boshqa ilmiy nashrlar bibliografik tartibda keltirilgan.

Gökhan Coşgun va Metin Yıldırımning "Yunus Emre Bibliyografiyasi (1991–2021)" nomli tadqiqoti Yunus Emro haqida 1991-2021 yillar davomida nashr etilgan


barcha asosiy ilmiy adabiyotlarni bir joyga jamlash maqsadida tayyorlangan keng qamrovli bibliografik ko'rsatkichdir. Mualliflar Yunus Emroga bag'ishlangan monografiyalar, kitoblar, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalari, ilmiy maqolalar, simpozium materiallari va konferensiya tezislari yig'ib, bibliografik talablar asosida tizimlashtirganlar. Asarning asosiy vazifasi tadqiqotchilar uchun ishonchli manbalar bazasini yaratishdan iborat. Ushbu ish avvalgi bibliografiyalardan, xususan Mustafo Tatchi tuzgan "Yunus Emre Bibliyografiyasi" (1988)dan farqli ravishda, 1991-2021 yillar davomida Yunus Emro haqida paydo bo'lgan yangi adabiyotlarni qamrab oladi. Shuning uchun u Yunus Emro tadqiqotlarining so'nggi o'ttiz yillik rivojlanishini aks ettiruvchi eng to'liq bibliografik manbalardan biri hisoblanadi. Bu maqola tahlil emas, balki manbalar katalogi bo'lib, unda har bir nashrning to'liq bibliografik tavsifi keltirilgan (Coşgun , Yıldırım, 1921).

Beytullah Karagöz va İzzet Şerefning "Yunus Emre İle İlgili Araştırmaların Bibliyometrik Analizi" nomli maqolasida (Karagöz, Şeref, 2019) Yunus Emre ijodiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar bibliometrik tahlil usuli asosida o'rganilgan. Mazkur tadqiqotning maqsadi Yunus Emre bilan bog'liq ilmiy nashrlarni *bibliometrik ko'rsatkichlar* asosida tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot zamonaviy tadqiqot metodlari asosida olib borilgan va maqolada quyidagi muhim ilmiy savollarga javob izlangan: Yunus Emre haqida chop etilgan akademik nashrlarning yillar bo'yicha son jihatidan taqsimoti qanday? Yunus Emre haqidagi akademik tadqiqotlarning nashr tili va akademik nashrlarning nashr turi bo'yicha taqsimoti qanday? Yunus Emre haqidagi akademik nashrlar mualliflari qaysi ilmiy muassasalarda faoliyat yuritadi? Yunus Emre haqidagi akademik tadqiqotlarda eng faol ilmiy jurnallar eng faol mamlakatlar qaysilar? Yunus Emre haqidagi akademik nashrlar qanchalik iqtibos (sitat) olgan? Yunus Emre haqidagi akademik nashrlarda foydalanilgan manba turlarining taqsimoti qanday? Yunus Emre haqidagi akademik nashrlarning kalit so'zlar tarmog'i (network) qanday shakllangan?

Mualliflar mazkur bibliometrik tahlil Yunus Emre tadqiqotlarining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun istiqbolli

yoʻnalishlarni belgilashga xizmat qilishini taʼkidlaydilar (Karagöz, Şeref, 2019,123). Tadqiqot natijasida olingan maʼlumotlar jadval, grafik va rasmlar koʻrinishida taqdim etilgan. Masalan, Yunus Emro bilan bogʻliq akademik tadqiqotlarning yillar boʻyicha son jihatidan taqsimoti quyidagicha jadvalda keltirilgan.



1-rasm. Yunus Emro bilan bogʻliq tadqiqotlarning yillar boʻyicha son jihatidan taqsimoti.

Natijalarga koʻra, eng koʻp nashr chop etilgan yillar 2009 va 2011 boʻlib ($n = 5$). Keyingi oʻrinlarda 2016 va 2017-yillar ($n = 3$) keladi. Eng kam tadqiqot nashr etilgan yillar esa 1959, 1960, 1961, 2005, 2014 va 2015 boʻlib, ushbu yillarda *har birida bittadan* ($n = 1$) tadqiqot chop etilgan. (Karagöz, Şeref, 2019, 129)

Tadqiqot Scopus maʼlumotlar bazasidan olingan nashrlar asosida amalga oshirilgan boʻlib, VOSviewer dasturi yordamida ilmiy hamkorlik tarmoqlari va kalit soʻzlar vizuallashtirilgan. Mualliflar nashrlar soni, ularning tili, turi, mualliflar faoliyat yuritayotgan muassasalar, ilmiy jurnallar, mamlakatlar, iqtiboslar (citation), foydalanilgan manbalar hamda kalit soʻzlarni bibliometrik mezonlar asosida tahlil qilganlar. Tahlil natijalariga koʻra, 1959–2017-yillar oraligʻida Yunus Emre boʻyicha 31 ta Scopus indekslangan ilmiy nashr aniqlangan. Ularning aksariyati turk tilida chop etilgan boʻlib, eng faol ilmiy markazlar Gazi Üniversitesi va Selçuk Üniversitesi, eng faol jurnal esa Türk Kültürü ve Hacı Bektaş Veli Araştırma Dergisi ekani qayd etilgan. Shuningdek, Yunus Emre tadqiqotlarida eng koʻp murojaat qilinadigan manba turi kitoblar ekani, maqolalarning iqtibos koʻrsatkichlari esa

nisbatan past darajada qolayotgani aniqlangan. Kuzatganimizdek, ushbu maqola Yunus Emre bilan bogʻliq akademik nashrlarni bibliometrik xususiyatlar nuqtai nazaridan oʻrganishga bagʻishlangan ilk zamonaviy tadqiqot hisoblanadi. Ushbu ish Yunus Emre haqida 1959–2017-yillar oraligʻidagi oltmish yillik davrda chop etilgan ilmiy nashrlarni qamrab olishi hamda ularni bibliometrik yondashuv asosida tahlil qilishi bilan muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Yunus Emro asarlarining oʻrganilish tarixi bir necha bosqichlarni qamrab olib, XX asr boshlaridan boshlab ilmiy izlanishlarning mustaqil yoʻnalishiga aylangan. Dastlabki tadqiqotlarda M. F. Köprülü Yunus Emreni turk tasavvuf adabiyotining yirik vakili sifatida ilmiy muomalaga kiritgan boʻlsa, keyinchalik Abdülbaki Gölpınarlı uning “Dîvân” va “Risâletü’n-Nushiyye” asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlarini tayyorladi. Mustafa Tatçı esa qoʻlyozmalarni qiyosiy oʻrganish asosida Yunus Emre merosining eng mukammal tanqidiy nashrlarini yaratib, matnshunoslik, tasavvuf, poetika va til masalalarini yangi ilmiy bosqichga olib chiqdi. Talât Sait Halman, Annemarie Schimmel, Louis Bazin kabi xorijlik olimlarning tadqiqotlari esa Yunus Emre ijodining xalqaro miqyosda tanilishiga, uning asarlarining ingliz, fransuz va boshqa tillarga tarjima qilinishi hamda jahon adabiyotshunosligida oʻrganilishiga muhim hissa qoʻshdi.

Yunus Emroga oid bibliografik tadqiqotlar ham izchil rivojlanib bordi. Mustafa Tatçı va Suzan Gürelli tomonidan tuzilgan “Yunus Emre Bibliyografiyası: Kitap-Makale” (1988) Yunus Emre haqidagi ilmiy adabiyotlarni bir tizimga solgan ilk mukammal bibliografik qoʻllanma boʻlsa, Gökhan Coşgun va Metin Yıldırımning “Yunus Emre Bibliyografiyası (1991-2021)” asari ushbu bibliografiyani yangi davr materiallari bilan boyitdi. Beytullah Karagöz va İzzet Şerefning bibliometrik tahlili esa Yunus Emre tadqiqotlarining rivojlanish dinamikasi, ilmiy markazlar, yetakchi tadqiqotchilar va asosiy yoʻnalishlarni statistik jihatdan yoritib berdi. Bu manbalar Yunus Emre merosining nafaqat matnshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan, balki bibliografik va bibliometrik yondashuvlar asosida ham keng va tizimli ravishda oʻrganilganini

ko'rsatadi hamda kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun mustahkam metodologik va manbashunoslik asosini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bazin L. *Poèmes de Yunus Emre*. – Paris: Maisonneuve et Larose, 1991.
2. Bazin L. *Yunus Emre // Encyclopaedia of Islam*. – Leiden: Brill.
3. Coşgun G., Yıldırım M. *Yunus Emre Bibliyografyası (1991–2021) // Darulfunun İlahiyat*. – 2021. – C. 32. – B. 149–299.
4. Dilçin C. *Yunus Emre Şiirlerinde Türk Dilinin Gücü // Türk Dili Dil ve Edebiyat Dergisi*. – 1992. – S. 487. – B. 30–49.
5. Gölpınarlı A. *Yunus Emre // Türk Dili Dil ve Edebiyat Dergisi*. Türk Halk Edebiyatı Özel Sayısı. – 1968. – C. 19. – S. 207. – B. 376–384.
6. Gölpınarlı A. *Yunus Emre: Risâlat al-Nushiyye ve Dîvân*. – İstanbul: Eskişehir Turizm ve Tanıtma Derneği Yayınları, 1965. – 355 s.
7. Gölpınarlı A. *Yunus Emre Divanı*. – İstanbul: İnkılâp Kitabevi, 2006. – 432 s.
8. Gölpınarlı A. *Risâletü'n-Nushiyye ve Dîvân*. – İstanbul: Türkiye İş Bankası Kültür Yayınları, 2008. – 404 s.
9. Günay U., Horata O. *Risâletü'n-Nushiyye*. – Ankara: Akçağ Yayınları, 1994. – 192 s.
10. Güzel A. *Yunus Emre'de İnsan Tushunchasi // Vakıf Haftası Dergisi*. – 1991. – S. 8. – B. 83–96.
11. Halman T. S. *Yunus Emre and His Mystical Poetry*. – Bloomington: Indiana University Turkish Studies, 1981.
12. Halman T. S. *Yunus Emre and His Mystical Poetry*. 2nd ed. – Bloomington: Indiana University Turkish Studies, 1989.
13. Halman T. S. (trans.) *Yunus Emre: Selected Poems*. 2nd ed. – Ankara: Ministry of Culture of the Republic of Turkey, 1993.
14. Halman T. S. *Yunus Emre and the Sufi Tradition*. – Syracuse: Syracuse University Press, 1991.

- 15.Karagöz B., Şeref İ. *Yunus Emre ile İlgili Araştırmaların Bibliyometrik Analizi // Akdeniz Eğitim Araştırmaları Dergisi*. – 2019. – C. 13. – S. 27. – B. 123–141.
- 16.Köprülü M. F. *Türk Edebiyatında İlk Mutasavvıflar*. – Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları, 1991. – 518 s.
- 17.Schimmel A. *Yunus Emre // Numen*. – 1961. – Vol. 8. – No. 1. – P. 1–15.
- 18.Schimmel A. *Mystical Dimensions of Islam*. – Chapel Hill: University of North Carolina Press, 1975.
- 19.Sezer A. R. *The Concept of Love in Yunus Emre's Thought*. – M.A. Thesis. – Montreal: Institute of Islamic Studies, McGill University, 1967.
- 20.Subaşı Y. *Yunus Emre Divanı ve Risâletü'n-Nushiyye*. – İstanbul: Hisar Yayınevi, 1983. – 495 s.
- 21.Tatçı M., Gürelli S. *Yunus Emre Bibliyografyası: Kitap–Makale*. – Ankara: Kültür ve Turizm Bakanlığı Yayınları, Millî Kütüphane Yayınları, 1988. – 104 s.
- 22.Tatçı M. *Yûnus Emre Külliyyâtı. C. III: Risâletü'n-Nushiyye (Tenkitli Metin)*. – İstanbul: H Yayınları, 2008. – 353 s.

REFERENCE

1. Bazin L. (1991). *Poèmes de Yunus Emre*. Paris: Maisonneuve et Larose.
2. Bazin L. *Yunus Emre // Encyclopaedia of Islam*. Leiden: Brill.
3. Coşgun G., Yıldırım M. (2021). *Yunus Emre Bibliyografyası (1991–2021) // Darulfunun İlahiyat*. C. 32. B. 149-299.
4. Dilçin C. (1992). *Yunus Emre Şiirlerinde Türk Dilinin Gücü // Türk Dili Dil ve Edebiyat Dergisi*. S. 487. B. 30-49.
5. Gölpınarlı A. (1968). *Yunus Emre // Türk Dili Dil ve Edebiyat Dergisi*. Türk Halk Edebiyatı Özel Sayısı. C. 19. S. 207. B. 376-384.
6. Gölpınarlı A. (1965). *Yunus Emre: Risâlat al-Nushiyye ve Dîvân*. İstanbul: Eskişehir Turizm ve Tanıtma Derneği Yayınları, 355 s.
7. Gölpınarlı A. (2006). *Yunus Emre Divanı*. İstanbul: İnkılâp Kitabevi, 432 s.

8. Gölpınarlı A. (2008). *Risâletü'n-Nushiyye ve Dîvân*. İstanbul: Türkiye İş Bankası Kültür Yayınları, 404 s.
9. Günay U., Horata O. (1994). *Risâletü'n-Nushiyye*. Ankara: Akçağ Yayınları, 192 s.
10. Güzel A. (1991). *Yunus Emre'de İnsan Tushunchasi // Vakıf Haftası Dergisi*. S. 8. B. 83-96.
11. Halman T. S. (1981). *Yunus Emre and His Mystical Poetry*. Bloomington: Indiana University Turkish Studies.
12. Halman T. S. (1989). *Yunus Emre and His Mystical Poetry*. 2nd ed. Bloomington: Indiana University Turkish Studies.
13. Halman T. S. (1993). (trans.) *Yunus Emre: Selected Poems*. 2nd ed. Ankara: Ministry of Culture of the Republic of Turkey.
14. Halman T. S. (1991). *Yunus Emre and the Sufi Tradition*. Syracuse: Syracuse University Press.
15. Karagöz B., Şeref İ. (2019). *Yunus Emre ile İlgili Araştırmaların Bibliyometrik Analizi // Akdeniz Eğitim Araştırmaları Dergisi*. C. 13. S. 27. B. 123-141.
16. Köprülü M. F. (1991). *Türk Edebiyatında İlk Mutasavvıflar*. Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları, 518 s.
17. Schimmel A. (1961). *Yunus Emre // Numen*. Vol. 8. No. 1. P. 1-15.
18. Schimmel A. (1975). *Mystical Dimensions of Islam*. Chapel Hill: University of North Carolina Press.
19. Sezer A. R. (1967). *The Concept of Love in Yunus Emre's Thought*. M.A. Thesis. Montreal: Institute of Islamic Studies, McGill University.
20. Subaşı Y. (1983). *Yunus Emre Divanı ve Risâletü'n-Nushiyye*. İstanbul: Hisar Yayınevi, 495 s.
21. Tatçı M., Gürelli S. (1988). *Yunus Emre Bibliyografyası: Kitap-Makale*. Ankara: Kültür ve Turizm Bakanlığı Yayınları, Millî Kütüphane Yayınları, 104 s.
22. Tatçı M. (2008). *Yûnus Emre Külliyyâtı. C. III: Risâletü'n-Nushiyye (Tenkitli Metin)*. İstanbul: H Yayınları, 353 s.